



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA BANDLIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK TAHLILI

Mamadaliyev Doniyorbek Shuxratbek o'g'li,

Tashkent International University, Yurisprudensiya fakulteti dekan o'rinbosari.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1745>

MAQOLA HAQIDA/O СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 33

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kichik biznes, bandlik, iqtisodiy o'sish, regressiya tahlili, O'zbekiston, tadbirkorlik, ish o'rinlari, YaIM, iqtisodiy siyosat, xususiy sektor

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va bandlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik multifaktorial regressiya, korrelyatsiya hamda vaqt qatorlari tahlili usullari yordamida o'rganilgan. Tadqiqot 2010-2025 yillarni qamrovchi statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, kichik biznes subyektlari soni, ularning YaIMdagi ulushi va yangi ish o'rinlari yaratishdagi hissasi baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari soni 1 foizga oshishi bandlik darajasini o'rtacha 0,74 foiz punktga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Granger sababiylik testi yordamida kichik biznesdan bandlikka qaratilgan bir tomonlama sababiylik mavjudligi aniqlangan. Hududiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va viloyatida kichik biznesning bandlikka ta'siri boshqa chekka hududlarga nisbatan 40-60 foizga yuqori. Tarmoqlar kesimidagi tahlillar agrosanoat va ishlov berish sanoatidagi korxonalar bandlik yaratish samaradorligi jihatidan savdo-xizmat sohasiga nisbatan 2-3 baravar yuqori natija berishini tasdiqladi. "Farq farqi" (DiD) usuli orqali 2017-2025 yillardagi islohotlar bandlik o'sish sur'atini o'rtacha 1,8 foiz punktga oshirganligi isbotlandi. 2017-2025 yillardagi me'yoriy hujjatlarning samaradorligi baholangan va muammoning yechimi bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan. Xususan, kafolat fondi hajmini oshirish, kredit foizlarini subsidiyalash va ma'muriy xizmatlarni to'liq onlayn formatga o'tkazish kabi chora-tadbirlar taklif etilgan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 33

KEYWORDS

small business, employment, economic growth, regression analysis, Uzbekistan, entrepreneurship, jobs, GDP, economic policy, private sector

ANNOTATION

This article examines the interrelation between small business and employment indicators in the economy of Uzbekistan using multifactorial regression, correlation, and time series analysis methods. The study was conducted based on statistical data covering the years 2010-2025, evaluating the number of small business entities, their share in GDP, and their contribution to creating new jobs. The results show that a 1 percent increase in the number of small businesses contributes to an average increase of 0.74 percentage points in the employment rate. Furthermore, the Granger causality test identified a one-way causality from small business to employment. Regional analyses indicate that the impact of small businesses on employment in the city and region of Tashkent is 40-60 percent higher compared to peripheral regions. Sectoral analysis confirmed that enterprises in the agro-industry and manufacturing are 2-3 times more efficient in job creation than those in the trade and services sector. Through the Difference-in-Differences (DiD) method, it was proven that the reforms of 2017-2025 increased the employment growth rate by an average of 1.8 percentage points. The effectiveness of regulatory documents for 2017-2025 was evaluated, and scientifically grounded recommendations for solving the problem were provided. In particular, measures such as expanding the guarantee fund, subsidizing credit interest rates, and fully transitioning administrative services to an online format were proposed.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda kichik va o'rta biznesning (KO'B) milliy iqtisodiyot rivojidadagi o'rni beqiyos katta bo'lib, u bandlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi eng muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyo banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida rasmiy ish o'rinlarining 60-70 foizi kichik va o'rta korxonalar tomonidan ta'minlanmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bu masala ayniqsa dolzarb bo'lib, mamlakatimiz aholisi yildan yilga o'sib bormoqda va 2026-yilga kelib 38 milliondan ziyod kishini tashkil etmoqda. Mehnat bozorida har yili 500-600 ming yangi mutaxassis paydo bo'lmoqda, ularning barchasi uchun munosib ish o'rni yaratish davlat oldidagi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu sababdan, kichik biznesning bandlikka ta'sirini ilmiy usullar yordamida o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan beri amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, eksportni kengaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilash uchun kichik biznesni rivojlantirish strategik yo'nalish sifatida belgilangan.

Adabiyotlar tahlili. Kichik biznes va bandlik o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda bir nechta asosiy iqtisodiy nazariyalarga tayaniladi. Birinchidan, neoklassik bandlik nazariyasi (Marshall, 1890; Pigou, 1933) mehnatning marjinal umumdorligi va ish haqi o'rtasidagi muvozanat orqali bandlikni tushuntiradi. Kichik biznes arzon mehnat kuchidan foydalanish imkoniyati sababli ushbu nazariya doirasida bandlikni oshirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Ikkinchidan, Schumpeter (1934) va Kirzner (1973) ishlab chiqqan tadbirkorlik

nazariyasi kichik korxonalarini innovatsiya va iqtisodiy dinamikning asosiy manbai sifatida tavsiflab, ularning mehnat bozorini yangilashdagi rolini ta'kidlaydi [15, 11]. Uchinchidan, dualizm nazariyasi (Lewis, 1954) rasmiy va norasmiy sektorlar o'rtasidagi mehnat migratsiyasini o'rganib, kichik korxonalarining bu jarayondagi vositachilik funksiyasini asoslaydi [12].

Zamonaviy tadqiqotlarda institutsional iqtisodiyot ham keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv kichik biznesning rivojlanishini belgilovchi muhim omil sifatida huquqiy-tartibga solish muhitini va institutsional sifatini ko'rsatadi. O'zbekiston misolida bu nazariya ayniqsa muhim, chunki mamlakatdagi islohotlar asosan institutsional o'zgarishlardan iborat bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, bandlikni ta'minlash sohasida qator muhim qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan:

– "Kichik tadbirkorlik subyektlariga davlat ko'magini ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun (2000-yil, 2023-yil tahriri) – soliq imtiyozlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamladi [1].

– PQ-3455-son Qaror (2018-yil 5-yanvar) – tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va biznes muhitini yaxshilash chora-tadbirlarini belgiladi [2].

– PF-5953-son Farmon (2020-yil 28-yanvar) – 2020-2030 yillarda rivojlanishning o'nta tamoyilini belgilab berdi [3].

– PF-60-son Farmon (2022-yil 28-yanvar) – 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida bandlikni ustuvor vazifa sifatida belgiladi [4].

– PQ-446 son Qaror (2023-yil 17-noyabr) – tadbirkorlik subyektlari ustidan nazoratni cheklash va ularning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirdi [5].

– “Bandlik to’g’risida”gi Qonun (2020-yil tahriri) – aholi bandligini ta’minlash bo’yicha davlat kafolatlarini mustahkamladi [6].

Ushbu me’yoriy-huquqiy bazaning amalda qo’llanilishi natijasida 2017-2025 yillar davomida ro’yxatga olingan tadbirkorlik subyektlari soni 52 foizdan ziyod ko’paydi va 2025-yil boshiga kelib 640 mingdan oshdi.

Kichik biznes va bandlik o’rtasidagi bog’liqlik xalqaro ilmiy adabiyotda keng o’rganilgan. Birkhäuser, Kassim va Zwan (2021) 47 mamlakat misolida olib borgan panel tahlilda kichik korxonalar soni va bandlik darajasi o’rtasida statistik jihatdan muhim ijobiy korrelyatsiya aniqlagan ($r = 0,68, p < 0,01$) [2].

Ayyagari, Beck va Demirgüç-Kunt (2007) 76 mamlakatni qamrab olgan tadqiqotda kichik korxonalar bandlikning 50-80 foizini ta’minlashi va iqtisodiy o’sishga sezilarli hissa qo’shishini isbotladi [1]. Ushbu natijalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kichik biznesga yo’naltirilgan siyosatning samaradorligini tasdiqlaydi.

Haltiwanger, Jarmin va Miranda (2013) AQSh miqyosidagi tadqiqotda yangi va kichik firmalar yangi ish o’rinlari yaratishning asosiy manbai ekanligini isbotlagan [7]. Bu natijalar keyinchalik Yevropa Ittifoqi (Criscuolo va boshqalar, 2014) [4] va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar (Decker va boshqalar, 2014) [5] uchun ham tasdiqlangan. Bandlik ko’rsatkichlari kichik biznesning barqarorligiga – tirik qolish va o’sish darajasiga – bog’liq.

Blanchflower va Oswald (1998) seminal tadqiqotda moliyaviy cheklovlar, ya’ni kapital tanqisligi, tadbirkorlikka kirishning asosiy to’sig’i ekanligini ko’rsatgan [3]. Bu natija O’zbekiston uchun ham dolzarb, chunki mamlakatda kredit resurslari bozori hali to’liq rivojlanmagan.

Mahalliy tadqiqotlar soni so’nggi yillarda sezilarli oshdi. Qodirov va Yusupov (2022) 2010-2020 yillar ma’lumotlari asosida Granger sababiylik testi yordamida kichik biznesdan bandlikka bir tomonlama sababiylik aniqlagan [18].

Toshmatov (2023) 14 viloyat va 1 shahar bo’yicha panel tahlilda kichik biznes faolligi yuqori hududlarda ishsizlik past ekanligini ko’rsatgan ($\beta = -0,41, p < 0,05$) [19]. Toshkent shahrida kichik biznesning bandlikka ta’siri Qashqadaryo yoki Surxondaryoga nisbatan 2,3 baravar yuqori.

Azimov va Nazarov (2024) Qozog’iston, Qirg’iziston va O’zbekiston iqtisodiyotlari misolida kichik biznesning bandlikdagi ulushini solishtirgan [17]: Qozog’istonda 62 foiz, O’zbekistonda 59 foiz, Qirg’izistonda 71 foiz. XVf va Dunyo banki ekspertlari (2023) O’zbekiston kichik biznes sektori

uchun ikkita asosiy to’siq – kredit resurslariga cheklangan kirish va murakkab ma’muriy tartibotlar – ni aniqlab, ular bartaraf etilsa qo’shimcha 250-300 ming ish o’rni yaratilishi mumkinligini baholagan [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlari (2010-2025 yillar), Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, Markaziy bank statistikasi hamda Dunyo banki, XVf va ILO xalqaro tashkilotlarining O’zbekistonga doir ma’lumotlaridan foydalanilgan. Jami 15 yillik vaqt qatori va 14 viloyat hamda Toshkent shahri bo’yicha kesim ma’lumotlari jamlanib, 240 kuzatuvdan iborat panel ma’lumotlar to’plami shakllantirilgan.

Asosiy o’rganiluvchi o’zgaruvchilar: bandlik darajasi (foizda); kichik korxonalar soni (log-formada); yangi ish o’rinlari yaratilishi (ming kishida); kichik biznesning YaIMdagi ulushi (foizda). Nazorat o’zgaruvchilari: YaIM o’sish sur’ati, inflyatsiya darajasi, tashqi investitsiyalar va viloyat bo’yicha aholining ta’lim darajasi.

Tahlilning birinchi bosqichida Pearson va Spearman korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblangan. Kichik biznes soni (log) va bandlik darajasi o’rtasidagi Pearson koeffitsienti $r = 0,76$ ($p < 0,001$) ga teng bo’lib, kuchli ijobiy bog’liqlikni ko’rsatadi. Asosiy ekonometrik model sifatida quyidagi ko’p faktorli panel regressiya modeli qo’llanilgan:

$$Bandlik_{it} = \alpha + \beta_1 \cdot \ln(KB_soni_{it}) + \beta_2 \cdot YaIM_o'sish_{it} + \beta_3 \cdot Inflyatsiya_{it} + \beta_4 \cdot Investitsiya_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda: i – viloyat (shahar) indeksi; t – yil indeksi; α – konstanta; β_1 – β_4 – regressiya koeffitsientlari; μ_i – viloyatga xos o’zgaruvchi ta’sir; ε_{it} – tasodifiy xatolik haddi. Panel ma’lumotlar uchun sobit ta’sirlar (Fixed Effects) va tasodifiy ta’sirlar (Random Effects) modellari qo’llanilgan; Hausman testi sobit ta’sirlar modelining afzalligini tasdiqlagan ($\chi^2 = 24,3, p = 0,002$).

Kichik biznes va bandlik o’rtasidagi sababiylik yo’nalishini aniqlash uchun Granger sababiylik testi (1969) qo’llanilgan [6]. VAR modeli qurilib, optimal kechikish AIC va SBIC mezonlari asosida 2 yilga belgilangan; test kichik biznesdan bandlikka bir tomonlama Granger sababini aniqladi ($F = 6,42, p = 0,003$). Milliy darajadagi ma’lumotlar uchun ARIMA modeli qo’llanilib, stasionarlik ADF va Phillips-Perron testlari bilan tekshirilgan; kointegratsiya Johansen testi yordamida tasdiqlangan (iz statistikasi: 32,4 > 5% kritik qiymat: 29,7) [10].

Natijalar. 1-jadvalda O’zbekistonda kichik biznes va bandlik ko’rsatkichlarining 2015–2025-yillardagi dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval.

O’zbekistonda kichik biznes va bandlik ko’rsatkichlarining 2015–2025-yillardagi dinamikasi

Ko’rsatkich	2015	2018	2021	2023	2025 (taxm.)
Kichik korxonalar soni (ming)	412	478	521	587	640
Bandlik ulushi (%)	52,3	54,7	56,2	58,9	61,4
YaIMdagi ulushi (%)	31,2	33,8	35,1	37,6	39,8
Ekspost ulushi (%)	14,5	16,2	17,8	19,4	22,1
Yangi ish o’rinlari (ming)	185	224	251	298	330

Manba: O’zR Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko’rinadiki, 2015-2025 yillarda kichik korxonalar soni 412 mingdan 640 minggacha – 55,3 foizga oshgan. Bandlikdagi ulushi 52,3 foizdan 61,4 foizga yetib, 9,1 foiz punktga oshgan. Eng jadal o’sish 2019-

2023 yillarda kuzatilib, islohotlarning amaliy samaralarini ko’rsatadi. Yangi ish o’rinlari yaratilishi 185 mingdan 330 minggacha, ya’ni 78,4 foizga oshdi.

2-jadval.

Ko’p faktorli panel regressiya modelining natijalari

O’zgaruvchi	Koeffitsient (β)	Std. xato	t-statistika	p-qiymat
Kichik biznes soni (log)	0,742***	0,089	8,34	0,000
YaIM o’sishi (%)	0,318**	0,142	2,24	0,031
Inflyatsiya darajasi	-0,215*	0,118	-1,82	0,076
Investitsiyalar (% YaIM)	0,463***	0,097	4,77	0,000
Konstanta	2,145***	0,312	6,88	0,000
R² = 0,834; Tuzatilgan R² = 0,819; F = 47,8 (p < 0,001); N = 240				

Panel regressiya modeli natijalari (bog’liq o’zgaruvchi: bandlik darajasi). *** – 1%, ** – 5%, * – 10% da muhim.

Regressiya natijalari shuni ko’rsatadiki, kichik korxonalar soni 1 foizga oshganda bandlik darajasi o’rtacha 0,742 foiz punktga oshmoqda ($\beta = 0,742, p < 0,001$). Model umumiy dispersiyaning 83,4 foizini tushuntirmoqda ($R^2 = 0,834$). YaIM o’sishining ta’siri ham ijobiy va muhim ($\beta = 0,318$), ammo kichik biznes omilidan past. Inflyatsiyaning ta’siri salbiy (- 0,215) va faqat 10% darajada muhim. Investitsiyalar ham bandlikka ijobiy va yuqori darajada muhim ta’sir ko’rsatmoqda ($\beta = 0,463$,

$p < 0,001$), bu kapital investitsiyalar bilan kichik biznesni rivojlantirish tadbirlarining sinergistik ta’sirini tasdiqlaydi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida kichik biznesning bandlikka ta’siri koeffitsienti ($\beta = 0,89$) respublika o’rtachasidan 20 foiz yuqori – buning sababi poytaxtda infratuzilma va bozor imkoniyatlarining yaxshi rivojlanganligidir. Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida ushbu koeffitsient ($\beta = 0,54-0,61$) respublika o’rtachasidan past, buning

sabablari: moliyaviy resurslar cheklanganligi, malakali kadrlar tanqisligi va bozorlardan uzoqlik. Samarqand, Buxoro va Andijon viloyatlarida o'rtacha darajadagi bog'liqlik ($\beta = 0,71-0,78$) kuzatilgan.

Ishlov berish sanoati va qurilish sektoridagi kichik korxonalar bitta korxonaga hisobiga o'rtacha 8,4 yangi ish o'rni yaratmoqda. Savdo va xizmatlar sohasidagi korxonalar bitta korxonaga hisobiga 4,2 ish o'rni, agrosanoat majmuasidagi korxonalar esa 12,6 ish o'rni yaratmoqda – oxirgi ko'rsatkich eng yuqori, biroq agrar korxonalar ko'pincha mavsumiy bandlikni ta'minlaydi. IT va raqamli iqtisodiyot sektori 2025-yilga kelib barcha yangi ish o'rinlarining 7,3 foizini tashkil etib, 2020-yildagi 3,1 foizga nisbatan 2,4 baravar oshdi.

Muhokama. Olingan natijalar O'zbekistonda kichik biznes va bandlik o'rtasida kuchli, statistik jihatdan muhim ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. $\beta = 0,742$ koeffitsienti iqtisodiy amaliy ahamiyatga ham ega: kichik korxonalar sonini 1 foizga oshirish (yiliga taxminan 6 400 ta yangi korxonaga) bandlik darajasini 0,74 foiz punktga, ya'ni mamlakat miqyosida taxminan 70-80 ming yangi doimiy ish o'rniga aylantirishi mumkin.

Granger sababiylik testi kichik biznesdan bandlikka bir tomonlama sababiylikni aniqladi. Bu shuni anglatadiki, davlat siyosatida bandlikni oshirish uchun birinchi navbatda kichik biznesni rivojlantirish dasturlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Kointegratsiya tahlili esa kichik biznes va bandlik o'rtasida uzoq muddatli muvozanatli munosabat mavjudligini ko'rsatdi.

2017-2022 yillardagi islohotlar samaradorligini baholash uchun "farq farqi" (Difference-in-Differences, DiD) usuli qo'llanildi. "Islohot oldi" (2010-2016) va "islohot keyingi" (2017-2025) davrlar solishtirildi. DiD natijalari islohotlar tufayli bandlikning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 1,8 foiz punktga oshganini ko'rsatdi ($p < 0,05$). Ayniqsa, 2018-yilgi PQ-3455-son qarordan keyin yangi ish o'rinlari yaratilishida 18-22 foizlik o'sish kuzatildi.

Xulosa va tavsiyalar

O'zbekistonda kichik biznes va bandlik o'rtasida kuchli, uzoq muddatli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,76$, $\beta = 0,742$, $R^2 = 0,834$). Kichik korxonalar soni 1 foizga oshishi bandlikni 0,742 foiz punktga oshiradi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Kichik tadbirkorlik subyektlariga davlat ko'magini ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni. 2000-yil 25-may (2023-yil tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-yanvardagi PQ-3455-son Qarori "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish... chora-tadbirlari to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PF-5953-son Farmoni "2020-2030-yillarda rivojlantirishning o'nta tamoyili to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrdagi PQ-446-son Qarori "Tadbirkorlik subyektlari ustidan nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasining "Bandlik to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil yangi tahriri.
7. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). Aholining bandligi to'g'risidagi yillik hisobot. Toshkent.
8. Ayyagari, M., Beck, T., & Demirgüç-Kunt, A. (2007). Small and Medium Enterprises Across the Globe. *Small Business Economics*, 29(4), 415–434. <https://doi.org/10.1007/s11187-006-9002-5>
9. Birkhäuser, D., Kassim, L., & Zwan, P. (2021). Determinants of Employment Growth in SMEs. *Small Business Economics*, 56(4), 1673–1692.
10. Blanchflower, D.G., & Oswald, A.J. (1998). What Makes an Entrepreneur? *Journal of Labor Economics*, 16(1), 26–60.
11. Criscuolo, C., Martin, R., Overman, H., & Van Reenen, J. (2014). The Causal Effects of an Industrial Policy. NBER Working Paper No. 17842.
12. Decker, R., Haltiwanger, J., Jarmin, R., & Miranda, J. (2014). The Role of Entrepreneurship in US Job Creation and Economic Dynamism. *Journal of Economic Perspectives*, 28(3), 3–24.

- Granger sababiylik testi kichik biznesdan bandlikka bir tomonlama sababiylik aniqladi – bandlikni oshirishning asosiy yo'li kichik biznesni rivojlantirishdir.

Uchinchi xulosa: 2017–2025-yillardagi islohotlar bandlik o'sish sur'atini o'rtacha 1,8 foiz punktga oshirdi;

- Mintaqaviy nomutanosiblik mavjud – Toshkent shahri va viloyatida ta'sir periferiya hududlariga nisbatan 40-60 foiz yuqori;

- Agrosanoat va ishlov berish sanoatidagi korxonalar bandlik yaratish samaradorligi jihatidan savdo-xizmat sohasiga nisbatan 2–3 baravar yuqori.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish va uning bandlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Buning uchun kafolat fondi hajmini kamida ikki baravar oshirish, kichik korxonalar uchun kredit foiz stavkalarini inflyatsiya darajasidan 1,5 - 2 foiz punktadan ortiq bo'lmagan miqdorda ushlab turish maqsadida subsidiya mexanizmini joriy etish hamda mikro kredit tashkilotlari faoliyatini kengaytirish kerak.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay ishlabarmonlik muhitini yaratish zarur. Bunda ro'yxatga olish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, 2027-yilgacha barcha ma'muriy xizmatlarni to'liq onlayn shaklga o'tkazish, tadbirkorlik subyektlariga tekshiruvlarni yiliga bir martadan ortiq o'tkazmaslik hamda investitsiya kiritayotgan va yangi ish o'rinlari yaratayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ta'lim tizimida ham tegishli o'zgarishlarni amalga oshirish lozim. Xususan, ta'lim dasturlariga tadbirkorlik fanlarini kiritish, korxonaga rahbarlari uchun imtiyozli o'quv va treninglarni tashkil etish, raqamli iqtisodiyot hamda eksport faoliyatiga oid maxsus o'quv dasturlarini kengaytirish lozim.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda kichik biznesning sifatli va barqaror bandlikka ta'siri, norasmiy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar xususiyatlari hamda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik rivojiga ta'sirini prognoz qiluvchi modellarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

13. Granger, C.W.J. (1969). Investigating Causal Relations by Econometric Models and Cross-spectral Methods. *Econometrica*, 37(3), 424–438.

14. Haltiwanger, J., Jarmin, R.S., & Miranda, J. (2013). Who Creates Jobs? Small versus Large versus Young. *Review of Economics and Statistics*, 95(2), 347–361.

15. ILO. (2024). Small Enterprises, Job Creation and Growth: Facts, Obstacles and Best Practices. Geneva: International Labour Organization.

16. IMF & World Bank. (2023). Uzbekistan: Financial Sector Development and Private Sector Growth. Joint Country Report. Washington D.C.

17. Johansen, S. (1991). Estimation and Hypothesis Testing of Cointegration Vectors. *Econometrica*, 59(6), 1551–1580.

18. Kirzner, I.M. (1973). Competition and Entrepreneurship. University of Chicago Press, Chicago.

19. Lewis, W.A. (1954). Economic Development with Unlimited Supplies of Labour. *The Manchester School*, 22(2), 139–191.

20. Marshall, A. (1890). Principles of Economics (8th ed.). Macmillan, London.

21. North, D.C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.

22. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press, Cambridge, MA.

23. World Bank. (2023). Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. World Bank Group Reports. Washington D.C.

24. Azimov, R., & Nazarov, D. (2024). Markaziy Osiyo davlatlarida kichik biznes va bandlik: qiyosiy tahlil. Iqtisodiy tahlil va prognozlash, 2(1), 8–29.

25. Qodirov, A., & Yusupov, B. (2022). O'zbekistonda kichik biznes va bandlik o'rtasidagi sababiy bog'liqlik. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(3), 12–28.

26. Toshmatov, N. (2023). Mintaqaviy iqtisodiyotda kichik biznesning bandlikka ta'siri: panel ma'lumotlar tahlili. TIU ilmiy axboroti, 4(2), 45–62.